


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
M.Ibragimov
2025 - yil «23» 09




« Maktabgacha ta’limda musiqa o‘qitish metodikasi »

FANI BO‘YICHA

SILLABUS

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi: 60110600 – Musiqa ta’limi

Nukus - 2025



Modul / FAN SILLABUSI

Pedagogika fakulteti

60110600 – Musiqa ta'limi

yo'nalishi



Fan nomi:	Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi
Fan turi:	Majburiy fan
Fan kodi:	MTMO'M11208
Yil:	2025-2026
Semestr:	I-II
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	240
Ma'ruza	24-24
Amaliy mashg'ulotlar	24-24
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Mustaqil ta'lim	72+72
Seminar	-
Kurs ishi	-
Kredit miqdori:	8
Baholash shakli:	Og'zaki
Fan tili	O'zbek

Fanning maqsadi (PM)

FM 1	<p>Fanni o'qitishdan maqsad: bo'lajak musiqa rahbarlarida kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi bo'yicha yo'nalishidan boshlab, bolalarning dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqa didini o'stirish, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unda hayot o'z aksini topishini anglashdir.</p> <p>Mazkur maqsadga erishishda ta'lim psixologiyasi va kognitiv o'qitish strategiyalariga asoslangan metodik yondashuvlar qo'llaniladi. Ushbu yondashuvlar orqali talabalarda pedagogik faoliyatga zarur bo'lgan nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalar, psixologik sezgirlik, emotsional- intellektual yondashuv va musiqiy tafakkurni shakllantirish ko'zda tutiladi. Talabalar maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda musiqa darslarini metodik jihatdan to'g'ri loyihalash, musiqani ongli idrok etishga yo'naltirilgan usullarni qo'llash, hamda bolalarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.</p>
------	---

Fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich bilimlar

1	<p>Fanning vazifasi: -talabalarga maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan musiqiy tarbiyaning pedagogik-psixologik asoslari va uning rivojlantiruvchi imkoniyatlari haqida chuqur tushuncha berish;</p> <ul style="list-style-type: none"> -maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish qonuniyatlarini ochib berish, bunda rivojlanish psixologiyasi yondashuvlarini inobatga olish; -talabalarni musiqa mashg'ulotlarini rejalashtirish, tashkil etish va baholashda xalqaro baholash tizimlari - PISA (funktional savodxonlik, kreativ fikrlash, muammoli vaziyatga yechim topish) hamda TIMSS (bilimlarni qo'llay olish, analiz qilish, tushuntirish) kabi yondashuvlarga muvofiq ko'nikmalar bilan qurollantirish; - MTTda musiqiy faoliyatlarni o'rganish jarayonida turli usul va uslublarni (faol, interfaol, differensial yondashuvlar, musiqiy o'yinlar, multimodal o'qitish) qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish; -musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarning emotsional- intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, his-tuyg'ulari orqali musiqiy obrazlar, syujetlar va hodisalarni anglashga yo'naltirish; -musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish, bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish faoliyatlari orqali ijodiy fikrlash, eshitish madaniyati, muvofiqlik va hamkorlik kabi ko'nikmalarni shakllantirish; -musiqani o'rgatishda kognitiv strategiyalardan (aql xaritalari, muammoli savollar, musiqiy voqealashuv, assotsiatsiyalar) foydalangan holda bolalarning idrok, tafakkur, tasavvur va mustaqil fikrlashini rivojlantirish; -bolalar ovozini asrash, ularni sodda, tabiiy, ravon va ifodali kuylashga o'rgatish, vokal madaniyatini tarbiyalash va badiiy ifoda orqali o'z fikrini yetkazishga undash; -talabalarda musiqiy asarlardan zavq olish, ularni estetik tahlil qilish, badiiy obrazlarni anglash orqali musiqiy did va badiiy-estetik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish; - musiqiy mashg'ulotlar jarayonida musiqiy asarlarning mazmunini badiiy harakat, raqs va o'yin shaklida ifoda etish usullarini o'rganish, bu orqali bolalarda musiqiy tafakkur va jismoniy ifoda uyg'unligini rivojlantirish; - musiqa mashg'ulotlari orqali bolalarni milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, an'anaviy kuylar va milliy cholg'u asboblari bilan tanishtirish, ularning jo'rligida milliy ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish, bu orqali milliy o'zlikni shakllantirish; -musiqa mashg'ulotlarining mazmunini maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) hayotiga integratsiyalash, bayramlar, ertak sahnalashtirish, konsertlar va ochiq mashg'ulotlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar asosida ijodiy ishtirok etishni rag'batlantirish.
---	---

Ta'lim natijalari (TN)

Ta'lim natijalari (TN)	
	Bilim:
TN1	<p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va kognitiv rivojlanish xususiyatlari haqida bilimga ega bo'ladi hamda bu xususiyatlarning musiqa mashg'ulotlari mazmuniga qanday ta'sir qilishini tasavvur qila oladi; umumiy musiqiy ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasiga oid bilimlarga ega bo'ladi; zamonaviy musiqiy-pedagogik texnologiyalar va metodlarni tushunadi, shuningdek, musiqiy ta'lim va tarbiyaning rivojlanishiga doir ilmiy-uslubiy ishlanmalarni ishlab chiqish bo'yicha bilimga ega bo'ladi; taraqqiy etgan mamlakatlar ta'lim tizimini, shaxs madaniyati va musiqiy tarbiya orqali estetik didni shakllantirishga oid konseptual bilimlarga ega bo'ladi; musiqiy ta'lim bo'yicha o'quv-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, musiqa madaniyati darslarini zamonaviy pedagogik prinsiplar asosida tashkil etish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'ladi; musiqa pedagogikasi bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalar va uslublarni amaliyotda</p>

	qo'llash imkoniyatlari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'ladilar;</i>
	Ko'nikmalar :
TN2	<p>Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va kognitiv rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda musiqa mashg'ulotlarini loyihalash va tashkil eta oladi; musiqa orqali bolalarning emotsional holati, tafakkuri, xotirasi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim psixologiyasiga asoslangan metodlardan foydalana oladi; kognitiv o'qitish strategiyalarini (aql xaritalari, muammoli vaziyatlar, ifodali tinglash, assotsiativ o'yinlar) qo'llagan holda bolalarning musiqa orqali o'z fikrini anglash, tasavvur qilish va eslab qolish ko'nikmalarini shakllantira oladi; musiqa o'rganish jarayonida metakognitiv yondashuvlardan (o'zini baholash, o'z-o'zini kuzatish) foydalanib, bolalarda mustaqil musiqiy fikrlash va o'zini ifoda etish imkoniyatlarini rivojlantira oladi; maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa fanini o'qitishda bolalar yoshiga mos psixologik muhit yaratish va ularga individual yondashish usullarini qo'llay oladi; musiqa mashg'ulotlarning maqsad va vazifalarini ongli ravishda singdirib boradi; atoqli kompozitor va bastakorlarning ijodi, ularning asosiy asarlari orqali estetik nafosatni anglaydi; asarlardan parchalarni ijro eta olish va ularni tinglab tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi; kasbiy faoliyat bilan bog'liq tegishli axborotlarni mustaqil tanlaydi va amaliyotda qo'llay oladi; musiqa mashg'ulotlarning barcha shakllarini amaliyotda to'g'ri qo'llashni hamda musiqiy-pedagogik ish faoliyatida zarur bo'lgan umumiy, kasbiy maxsus bilim va <i>ko'nikmalarni egallaydi;</i></p> <p>Har bir guruhda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda musiqa o'qitish metod va usullarini to'g'ri tanlay oladi; ularning bilim darajasi va ijrochilik malakalarini baholay oladi; musiqa mashg'ulotlarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta oladi; maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi, didaktik yondashuvlar, musiqa o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va mazmunini chuqur anglaydi;</p> <p>Musiqa o'qitish prinsplari, metodlari, musiqiy o'qish va ijro etish, usullari hamda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotda qo'llana oladi. Musiqa rahbari shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablarni biladi, jamoa bo'lib kuylash, ritmik harakatlar va boshqa musiqiy faoliyat turlarini to'g'ri yo'lga qo'yadi, tarbiyalanuvchilarda ijrochilik va ijodkorlik malakalarini shakllantiradi. Musiqiy tarbiya asoslarini puxta egallagan holda amalda qo'llay olish malakasiga ega bo'ladi.</p>

Mashg'ulotlar shakli: Lekciya (L) I semestr	
L1	Bolalar tarbiyasida musiqiy ta'lim-tarbiyaning ahamiyati ¹
L2	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari ²
L3	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarida qo'llaniladigan faoliyat turlari
L4	Musiqiy idrok va tinglash jarayonlarini tashkil etish asoslari (MTTda)
L5	Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish
L6	Bolalarda musiqiy-ritmik harakatlar malakasini shakllantirish usullari
L7	Bolalarni musiqa cholg'ular bilan tanishtirish va ularda chalishga o'rgatish ³
L8	Musiqiy didaktik o'yinlar va ularning ta'limiy ahamiyati

¹ <https://catalog.mit.edu/degree-charts/comparative-media-studies-cms/> (Massachusetts texnologiya instituti, AQSh)

² <https://catalog.mit.edu/degree-charts/comparative-media-studies-cms/> (Massachusetts texnologiya instituti, AQSh)

³ <https://catalog.mit.edu/degree-charts/comparative-media-studies-cms/> (Massachusetts texnologiya instituti, AQSh)

L 9	Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq folklori ijrochilik namunalari bilan tanishtirish
L 10	Musiqa mashg'ulotlarida qo'llaniladigan usul va uslublar
L 11	Musiqa mashg'ulotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi
L 12	Musiqa rahbarining ish hujjatlari
II semestr	
L13	Musiqa mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish va diagnostik tahlil qilish ⁴
L14	Musiqa mashg'ulotlarida bayram tadbirlari, ssenariy ishlab chiqish va tashkil etishga qo'yiladigan talablar
L15	Musiqa ta'limida zamonaviy metodik ta'minot va uning samaradorligi
L16	Musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonida xorijiy tajribalar va ularni amaliyotga joriy etish
L17	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqiy terapiya elementlari
L 18	Musiqa tarbiyasida STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) yondashuvi
L 19	Maktabgacha ta'limda musiqiy mashg'ulotlarni rejalashtirish asoslari
L 20	Bolalar musiqiy ijodkorligini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash metodikalari
L 21	Musiqa mashg'ulotlarida tematik ekskursiyalarni rejalashtirish va o'tkazish metodikasi
L 22	Musiqa rahbari va tarbiyachining o'zaro hamkorligi
L 23	Maktabgacha ta'limda milliy musiqa va an'anaviy qadriyatlar asosida estetik tarbiya berish
L 24	Musiqiy to'garak faoliyatini tashkil etish va bolalar ijodkorligini rivojlantirishdagi roli

Mashg'ulotlar shakli: Amaliy (A) I semestr	
A1	Bolalar tarbiyasida musiqiy ta'limning amaliy jihatlari: tahlil va muhokama. "Marsh" S.Abramova musiqasi
A2	Musiqa mashg'ulotlarining maqsad va vazifalarini belgilash usullari. "Yugurish" S.Abramova musiqasi
A3	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining rejasini tuzish (konsept, mashgulot ishlanmasi) . "Jajjigina qushcha" Po'lat Mo'min she'ri, D. Omonullaeva musiqasi
A4	Musiqiy tinglash va idrok etish jarayonlarini tashkil qilish amaliyoti . "Sariq bargchalar" M.Ikromova she'ri va musiqasi
A5	Qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish: bolalar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish . "Zina" Po'lat Mo'min she'ri, D. Omonullaeva musiqasi
A6	Musiqiy-ritmik harakatlar asosida mashgulot tashkil etish va harakatlarni uyg'unlashtirish. "Kuz" M.Ikromova she'ri va musiqasi
A7	Bolalarni musiqa cholg'ulari bilan tanishtirish: amaliy mashg'ulotda o'rgatish bosqichlari. "Arg'imchoq" Po'lat Mo'min she'ri, D. Omonullaeva musiqasi
A8	Didaktik musiqiy o'yinlar: tuzish, o'tkazish va tahlil qilish. "Mehrjon bayrami" M.Ikromova she'ri va musiqasi
A9	Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida amaliy musiqiy sahna ko'rinishlari tayyorlash. "Oppoq qor" Laylo Tursunova she'ri va musiqasi

⁴ <https://catalog.mit.edu/degree-charts/comparative-media-studies-cms/> (Massachusetts texnologiya instituti, AQSh)

A10	Turli metod va uslublardan foydalangan holda musiqa mashg'uloti o'tkazish. "Quyuncham" M.Ikromova she'ri va musiqasi
A11	Integrallashgan mashg'ulotlar: musiqa bilan boshqa faoliyatlarni uyg'unlashtirish amaliyoti. "Archa qo'shig'i" M.Ikromova she'ri va musiqasi
A12	Musiqa rahbarining ish hujjatlarini tuzish (kundalik, reja, tahlil) . "Quvnoq shiqildoqcha" M.Ikromova she'ri va musiqasi
II semestr	
A13	Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish: improvizatsiya, musiqa yaratish, tahlil qilish amaliyoti . "Qorbobojon" M.Ikromova she'ri va musiqasi
A14	Bayram tadbiri uchun ssenariy tuzish va uni amaliy tashkil etish. "Do'loncha" o'zbek xalq kuyi
A15	Zamonaviy metodik ta'minotni ko'rib chiqish (prezentatsiyalar, interaktiv vositalar). "Qo'g'irchog'im" A. Ro'zimuhamedov she'ri, S.Abramova musiqasi
A16	Xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga moslashtirish (taqdimot va muhokama shaklida) . "Onajonim" Nurbek she'ri, S.Abramova musiqasi
A17	Musiqiy terapiya elementlarini o'z ichiga olgan mashg'ulot namunalari tuzish. "Vals". R.Rizayeva musiqasi
A18	STEAM yondashuvi asosida musiqiy loyihani ishlab chiqish (musiqa + texnologiya + san'at) . "Buvijonim buvijon" Po'lat Mo'min she'ri, S.Abramova musiqasi
A19	17. Musiqa mashg'ulotlarini istiqbolli rejalasini ishlab chiqish. "Kulcha non" Po'lat Mo'min she'ri, I.Xamroyev musiqasi
A20	Bolalar musiqiy ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha metodik amaliy mashg'ulotlar. "Lazgi". Xorazm xalq kuyi. H.Rahimov qayta ishlagan
A21	Tematik musiqiy ekskursiyalarni rejalashtirish va o'tkazish metodikasi (masalan, teatrga yoki filarmoniyaga). "Keldi yana bahoroy" L.Tursunova she'ri va musiqasi
A22	Musiqa rahbari va tarbiyachi hamkorligining amaliy modellashtirilgan shakli. "Polka" M.Glinka musiqasi
A23	Milliy musiqa va qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiya mashg'uloti. "Rahmat opajon, rahmat bog'chajon" H.Qayumov she'ri, G'.Qodirov musiqasi
A24	Musiqa to'garagi faoliyatini tashkil etish va olib borish amaliyoti. "Bolalar va g'ozlar" M.Qo'shoqov she'ri, J.Najmiddinov musiqasi, "Chitti gul". O'zbek xalq kuyi.

Mustaqil ta'lim (M.T)			
1	Berilgan vaziyfalar bo'yicha slaydlar tayorlash	12	12
2	Amaliy darslarda mavzuga oid o'yinlar, Qo'shiqlar va ko'ngil ochar o'yinlarni ijro etish	10	10
3	Ma'ruza yozish	10	10
4	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish	10	10
5	Amaliy ishlarni bajarish va xulosalash	10	10
6	Referat tayorlash	20	20

Asosiy adabiyotlar	
1	Rejametova N. Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi -Toshkent: "Bookmany print"., 2020 y.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1	O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 19.05.2020 y. qabul qilingan, Senat tomonidan 07.08.2020 y. ma'qullangan, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori https://lex.uz/docs/4327235
3	O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ – T.:2022
4	Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarori T.:2019
5	Qodirova. F. Toshpulatova Sh. Kayumova N. A'zamova. Maktabgacha pedagogika /darslik / - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b.9
6	Axmedova.I.B., Nurmatova M.A. Bolalar musiqiy ta'limi metodikasi. -Toshkent: "Bookmany print"., 2024 y.
7	Music for a world class education/ Music education strategy 2019 to 2029. South Australia 2019.
8	https://catalog.mit.edu/degree-charts/comparative-media-studies-cms/ (Massachusetts texnologiya instituti, AQSh)
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI	
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6– noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni.
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20– maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda o'ning tizimidagi tashkilotlar faoloyaini samarali tashkil etish - chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 79 - son farmoni.
Internet saytlari	
1	www.tdpu.uz
2	www.pedagog.uz
3	www.ziyonet.uz
4	https://innovation.gov.uz/
5	https://www.uzedu.uz/r
6	https://catalog.mit.edu/degree-charts/comparative-media-studies-cms/ (Massachusetts texnologiya instituti, AQSh)

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazoratda qo'yiladigan baholash kriteriyasi

a) 5 baho olish uchun taalabalarning bilim saviyasi quyidagilarga javob berishi lazim:

- fanniń mazmunini toliq ochib bersa
- fandegi mavzularni aytib berganda ilmiyligiga e'tibor bersa, ilmiy xatolikka yo'l qo'ylarmasa.
- fan bo'yicha materiallarning nazariylik va taqribiy matumotlarga ega bo'lsa
- fan bo'yicha hurfikrroq qábiliyetine ega bo'lsa
- berilgan savollarga aniq javob bersa
- konspektasına tejamkor tayyorlangan bo'lsa
- mustaqil topshiriqlarni toliq va aniq o'rinlasa
- fanga tegishli qonunlar va boshqada hujjatlarini tiliq o'zlashtirgan bo'lsa
- fanga tegishli mavzu bo'yicha ilmiy maqola chiqargan bo'lsa
- tariyxıy jarayonlar bo'yicha aniq matumotlar bera olsa

b) 4 baho olish uchun taalabalarning bilim saviyasi quyidagilarga javob berishi lazim:

- fanniń mazmunini qiyofasingan va fandagi mavzularni aytib berganda ilmiy xatolikka yo'l qo'ylarmasa
- fanniń mundarijasını taqribiy turiniing ahamiyatini qiyofasingan bo'lsa
- fan bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'qish yo'nalishlaması qoidasi bo'yicha o'rinlasa
- berilgan savollarga aniq javob bersa
- mustaqil topshiriqlarni toliq va aniq o'rinlasa
- fanga tegishli qonunlar va boshqada hujjatlarini tiliq o'zlashtirgan bo'lsa

c) 3 baho olish uchun taalabalarńing bilim saviyasi quyidagilarga javob berishi lazim:

- fan bo'yicha umumiylik tushinchake ega bo'lsa
- mavzularni tor manoda ochib bersa, xatolikka yo'l qo'ylarsa
- mavzuni aytib berishi aniq bo'lmasa
- savollarga vaniq va qisqa javob bermese
- Fan bo'yicha ma'ruzani tejamkor tayyorlamagan bo'lsa

d) **kuydagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:**

- fan bo'yicha darslarga tayyorlanmagan bo'lsa
- fan bo'yicha hech qanday matumotlarga ega bo'lmasa
- tapsırmalarni boshqalardan ko'chib kirishlik olganligi bilinib qolsa
- lekciyaları ketme-ketlikda va toliq bo'lmasa
- savollarga toliq javob berilmasa
- Fanni bilmasa.





Fan: O'qituvchisi haqida ma'lumot

Dastur muallifi:	Omarova Anar assistent o'qituvchi
E-mail:	https://hemis.ndpi.uz/dashboard/login
Tashkilot:	Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, "Musiqiy ta'lim" kafedrası
Fikir bildiruvchilar:	docent Tajetdinova S.M. docent Kenjebaeva S.S.

Fan sillabusi institut o'quv – metodik Kengashining 2025 yil “23” 09
“4” – sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Fan sillabusi “Musiqiy ta'lim” kafedrasining 2025 yil “24” 09
“1” – sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan

O'quv-metodik boshqarma boshlig'i:
Pedagogika-psixologiya va ijodiy
ta'lim fakulteti dekani:
“Musiqiy ta'lim” kafedrası mudiri: :
Tuzuvchi:

 A. Abdiev
 U. Seytjanova
 R. Saparov
 A. Omarova